



## O'ZBEK TILIDA TALAFFUZ VA YOZUV O'RTASIDAGI TAFOVUTLAR.

**Azamqulova Shahina Jonibekovna**

Filologiya faklteti talabasi  
azamqulovabdullo@gmail.com

**Amirqulova Sarvinoz Urol qizi**

Filologiya faklteti talabasi  
amirqulovasarvinoz20@gmail.com

**Mengto'rayeva Mehrangiz Manzilbek qizi,**

Filologiya faklteti talabasi  
mengtorayevamehrangiz@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17370576>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilida talaffuz va yozuv o'rtasidagi tafovutlar muammosi keng tahlil qilinadi. Tilning og'zaki shakli doimiy o'zgarish va rivojlanishda bo'lsa, yozuv tizimi an'anaviy qoidalarga asoslangan barqarorlikni saqlaydi. Bu ikki shakl orasidagi ziddiyat tilshunoslikda dolzarb masala hisoblanib, uning sabablari, ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillari o'rganiladi. Maqolada talaffuz va yozuv tafovutlarining til siyosati, savodxonlik va ta'lim tizimiga ta'siri ko'rib chiqilib, raqamli texnologiyalar yordamida ushbu muammoni bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Til, yozuv, talaffuz, orfografiya, orfoepiya, nutq, assimilyatsiya, tafovut, talaffuz me'yorlari, ta'lim tizimi.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the problem of differences between pronunciation and writing in the Uzbek language. While the oral form of the language is constantly changing and developing, the writing system maintains stability based on traditional rules. The conflict between these two forms is considered a topical issue in linguistics, and its causes, socio-political and cultural factors are studied. The article examines the impact of pronunciation and writing differences on language policy, literacy and the education system, and analyzes the possibilities of eliminating this problem using digital technologies.

**Keywords:** Language, writing, pronunciation, orthography, orthoepy, speech, assimilation, differentiation, pronunciation norms, education system.

Til -bu faqatgina muloqot vositasi emas, balki xalqning ma'naviy dunyosi, tafakkuri va tarixining yozma hamda og'zaki ifodasidir. Og'zaki nutq doimiy ravishda o'zgarib, jonlanib turadi. Yozuv esa ushbu nutqni qog'ozga tushirib, aniq va barqaror shaklga keltirishga harakat qiladi. Aynan shu jonlilik va barqarorlik orasidagi farq — tilning talaffuzi bilan yozma ko'rinishi orasidagi tafovutlarni yuzaga keltiradi.

Tilshunoslikda so'zlarning imloviy to'g'riligini o'rganish orfografiyaning vazifasi bo'lsa, ularning adabiy talaffuzi va talaffuz me'yorlarini aniqlash orfoepiyaning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Har bir kishi to'g'ri yoza bilishi va so'zlay olishi kerak. Bu talab bo'lg'usi pedagoglar hamda ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilariga nisbatan, ayniqsa, qat'iy qo'yiladi[1].

Yozuv bilan til o'zaro chambarchas bog'liq, bu - ravshan haqiqat. Lekin yozuv og'zaki tilni aynan aks ettira oladimi? Mutlaqo yo'q. Agar yozuv shunday xususiyatga ega bo'lganida edi, orfografiya qoidalariga, orfoepik normalarga ehtiyoj qolmagan bo'lardi[3].



O'zbek tilida talaffuz va yozuv o'rtasidagi tafovutlar ko'pincha assimilyatsiya (o'xshashlashuv) va tovush tushishi hodisalari bilan izohlanadi. Masalan, xohlamoq – xolamoq, fahm – fam; xalq – qalq; xulq – qulq; shohi – shoyi; Ibrohim – Ibroyim kabi misollar buning dalilidir. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutqda soddalashtirish, urg'u, intonatsiya kabi omillar ta'sirida so'zlar fonetik jihatdan o'zgaradi. Biroq yozuvda bu holatlar ifodalanmaydi — u standart shaklda saqlanadi. Shu bois yozuv va talaffuz o'rtasidagi tafovutlarni yengish uchun ikki yo'nalishda ish olib borish zarur: ilmiy-nazariy asoslash va amaliy-ma'rifiy faoliyatni kuchaytirish[4].

Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida orfoepik me'yorlarni muntazam o'rgatish, darsliklar va ommaviy axborot vositalarida to'g'ri talaffuz va yozuvga e'tibor qaratish muhim. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar — masalan, talaffuzni o'rgatuvchi mobil ilovalar, interaktiv lug'atlar, audio darsliklar orqali ham savodxonlik darajasini oshirish mumkin.

Beruniy aytganidek, "Til so'zlovchining istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimon"[2]. Agar insondagi so'zlash quvvati yozuv san'atini keltirib chiqarmaganida, o'tmish xabarini bugungi zamonga yetkazish mumkin bo'lmas edi. Demak, talaffuz va yozuv o'rtasidagi tafovutlarni to'g'rilash, yagona me'yorni shakllantirish — bu tilni asrash, millatning madaniy darajasini yuksaltirish, va adabiy tilni keyingi avlodlarga toza shaklda yetkazish demakdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmedova N. O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari - 2016, 3-bet
2. Beruniy, Tanlangan asarlar II tom, O'zSSR FA nashriyoti, - Toshkent, 1965 - 138-b.
3. Mahmudov N. Til va yozuv – Toshkent, 1987. – 20-b.
4. Mahmudov N., Sobirov A. va boshqalar, Ona tili 5-sinf darsligi - 2020, 87-bet
5. Amirqulov, S. (2025). TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(3), 118-120.
6. Choriev, B. A. (2022). Comparative Analysis of the Names of Adjectives in the Russian and Uzbek Languages. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 13, 128-130.